





BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

3/2023



3/2023

<https://buxdu.uz>

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS

ANIQ VA TABIIY FANLAR *** EXACT AND NATURAL SCIENCES *** ТОЧНЫЕ И ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ

Norqulov J.F., Azimov R.B., Amirov A.A.	G'ildirak tishlariga ta'sir qiladigan eguvchi kuchlanishni tish yuzasi qattiqligiga bog'liqligini o'rganish va takomillashtirish	3
Tukhtaev B.J., Kanokova Sh.Z., Xudoyberdiyeva Sh.A., Olimov X.K.	Анализ средних поперечных импульсов частиц при столкновении Au+Au и Pb+Pb в сфере энергии $(s_{nn})^{1/2}=62-5020$ GeV	8
Masharipov S. I.	Hardy Littlewood Polya relation for nonlinear reflections	12
Umarov S.H., Hasanov N.Z., Hallokov F.K., Narzullaeva Z.M.	Effect of pressure and thermal expansion on the optical absorption edge and the deformation potential model in TLGAS ₂	16
Xayitova X.G'.	Ikkinchi tartibli matritsaviy model operatorning ba'zi spektral xossalari	23
Aliyeva T.A.	Features of the natural growth development of urban population in Nakhchivan economic region	29
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Asadov T.H.	O'zbek tilidagi murakkab tarkibli ayrim affikslarning tabiati xususida (ravishga nisbat beriladigan affikslar misolida)	37
Azimov I.M.	Miyon Buzrukning adabiy til, istiloh masalalariga munosabati	42
Bozorova R.Sh.	Nemis tilida gidronimlarning kelib chiqish tarixi	48
Davlatova M.H.	Ikkilamchi predikat bilan ifodalanadigan rezultativ tuzilmalar turlari xususida	55
Fayzullayev O.M., Ergasheva G.R.	Lingvomadaniyatshunoslikning fan sifatida shakllanishi, rivojlanish bosqichi va sohani o'rganishga doir yondashuvlar	60
Shirinova M.Sh., Rzayeva Ch.V.	Kinofilmlar tilida evfemizmlarning tutgan o'rni va ahamiyati	64
Хидирова Г.Х.	Замонавий терминологияда терминнинг объектив таърифи, тавсифи ва чегарасини ажратиш муаммолари	69
Hamroyeva N.N.	Shaxslararo muloqot jarayonida dialogik diskursning o'rni va kommunikativ strategiyalar	76
Ismoilova D.R.	Language crimes in English language	81
Narzullayeva F.O.	Tilning nominativ va ekspressiv funksiyalarining o'rganilishi	85
Rabieva M.G'.	Olamning kontseptual manzarasi kognitiv tajribaning muhim komponenti sifatida	90
Rasulov Z.I., Sharopov Sh.Sh.	Kooperatsiya tamoyilining pragmalingvistikadagi o'rni	94
Uzakova L.A.	O'zbek va ingliz tillarida to'y bilan bog'liq leksik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi: ingliz to'y marosimlarini o'rganish	99
Xolova Sh.D.	"Avoir" fe'li ishtirokidagi inson his-tuyg'ularini ifoda etuvchi frazemalar tarjimasining o'ziga xosliklari	103
Xudoyev S.S.	O'zbek va nemis topishmoqlarida metaforik birliklarning antropotsentrik tadqiqi	108
Xusainova Z.Y.	Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)da stemming jarayoni tavsifi	113
Yusupova D.Y.	Euphemistic findings of the poet Halima Khudoiberdiyeva	120

KINOFILMLAR TILIDA EVFEMIZMLARNING TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

Shirinova Mexrigiyo Shokirovna,

Buxoro davlat universiteti

O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika

kafedrası o‘qituvchisi, PhD

m.sh.shirinova@buxdu.uz

Rzayeva Chinara Vagif gizi,

Ozərbayjon Respublikası

Milliy Ozarbayjon ilmiy akademiyasining

Naxchivan bo‘limining dotsenti,

filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. Maqolada mustaqillik davri o‘zbek kinofilmlari tilida uchraydigan evfemizmlarning me‘yoriy-nome‘yoriy holatlari ortologik aspektida o‘rganilgan. Tabu va evfemizm tushunchalari ilmiy adabiyotlarda hamisha yonma-yon izohlanishi ta‘kidlangan hamda mazkur tushunchalarga oid tadqiqotlar tahlilga tortilgan. Kinofilmlar tilida uchraydigan evfemizmlar tanlab olinib, ma‘noviy guruhlarga ajratilgan. Filmlarda leksik, leksik-ekstralingvistik evfemizmlardan tashqari ekstralingvistik evfemizmlardan foydalanilgan kadrlar mavjudligi ham ta‘kidlangan.

Kalit so‘zlar: tabu, evfemizm, kino tili, adabiy me‘yor, leksik evfemizm, leksik-ekstralingvistik evfemizm, evfemizm vazifasi.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЭВФЕМИЗМОВ В ЯЗЫКЕ КИНОФИЛЬМОВ

Аннотация. В статье в орфологическом аспекте исследуются нормативные и ненормативные случаи применения эвфемизмов, встречающиеся в языке узбекских фильмов периода независимости. Отмечается, что в научной литературе понятия табу и эвфемизм всегда трактуются во взаимосвязи, наряду с этим анализируются исследования, связанные с этими понятиями. Эвфемизмы, встречающиеся в языке кинофильмов, были отобраны и разделены на смысловые группы. Отмечается, что помимо лексических и лексико-экстралингвистических эвфемизмов, в фильмах присутствуют также кадры с использованием экстралингвистических эвфемизмов.

Ключевые слова: табу, эвфемизм, киноязык, литературная норма, лексический эвфемизм, лексико-экстралингвистический эвфемизм, функция эвфемизма.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF EUPHEMISM IN THE LANGUAGE OF CINEMA

Annotation. In the article, in the orthological aspect, normative and non-normative cases of the use of euphemisms, found in the language of Uzbek films of the period of independence, are examined. It is noted that in the scientific literature the concepts of taboo and euphemism are always interpreted in conjunction, along with this, studies related to these concepts are analyzed. Euphemisms found in the language of films were selected and divided into semantic groups. It is noted that in addition to lexical and lexical-extralinguistic euphemisms, the films also contain shots using extralinguistic euphemisms.

Key words: taboo, euphemism, film language, literary norm, lexical euphemism, lexical-extralinguistic euphemism, euphemism function.

Kirish. Tilshunoslikka oid manbalarda tabu va evfemizm ko‘pincha yonma-yon qo‘llanilib, etnolingvistikaning tadqiq obyektini ekanligi ta‘kidlangan. Har bir tilda aytilishi nojoiz bo‘lgan, taqiqlangan so‘zlar mavjud bo‘lib, uni tilshunoslikda, odatda, tabu termini bilan nomlanadi. Tabu “man qilingan, taqiqlangan” kabi ma‘nolarni anglatadi. Ushbu birlikning qo‘llanilishi qadimgi davrlarga borib taqalganligi sababli qachon paydo bo‘lganligi haqida aniq ma‘lumot mavjud emas. Ibtidoiy jamoa davrida ham odamlar sehr-jodu bilan bog‘liq turli tushunchalarni ishlatishdan qo‘rqishgan. Natijada, ushbu so‘zlarning o‘rnida yumshoqroq, chiroyli, shuningdek, sirli so‘zlarni izlash boshlangan.

Tabu etnografik tushuncha bo‘lib, u afsona va e‘tiqodlar ta‘sirida paydo bo‘ladi. Yevropaning shimolidagi dastlabki qabilalar uchun ayiq juda xavfli, qo‘rqinchli hayvon sanalgan. Uning g‘azablangan paytidagi holatidan qattiq qo‘rqanliklari sababli ayiq so‘zi o‘rnida “asal yeyuvchilar”, “asal yalaganlar” kabi birliklardan foydalanishgan. Bu eng qadimiy, bundan ming yil ilgari ishlatilgan birinchi evfemizm sifatida qaraladi.

Asosiy qism. Evfemizmlarni ilk marta eski va zamonaviy turga ajratishni o‘rinli deb bilgan tadqiqotchi B.A.Larin edi. U eski va zamonaviy evfemizmlarga ajratish man qilingan maqsadga bog‘liqligini ta‘kidlaydi [1]. Tilshunos O.D.Pastuxova “Tabu va evfemizmlar ma‘nosi bir-biriga yaqin so‘zlar, matnlarda ularni kontekstual sinonim deb atash mumkin” [2] deb hisoblaydi.

Evfemizmlar ijtimoiy ahamiyatga ega vositalar sanalib, ko‘p hollarda ular faqat uslubiy sinonimlar yoki biror til birligining o‘rnini bosadigan vositalar emas, balki muayyan hodisaga yangicha munosabatda bo‘lishni, uni ko‘rib chiqishning yangi ko‘lamini, hodisaning yangi axloqiy-estetik ko‘rinishini o‘z ichiga oladi. Shunga asoslanib aytish mumkinki, ko‘p miqdordagi evfemizmlarning paydo bo‘lishi odamlarning hayotida jamiyat bilan bog‘liq o‘zgarishlar mavjudligidan dalolat beradi, shuningdek, ular ongida ijtimoiy-siyosiy tushunchalarning paydo bo‘lishi hamda mustahkamlanishi natijasidir. Bir tomondan, evfemizmlar jamiyat ongida paydo bo‘lgan o‘zgarishlarni aks ettiradi, boshqa tomondan esa, jamiyatga yangi g‘oyalarni tarqatish, mustahkamlashga yordam beradi. Evfemizm majoziy talqin qilish uchun muhim vosita sanalib, og‘zaki muloqotning samaradorligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. “Evfemizatsiya bu – nomni rad etish yoki kod nomini berish to‘g‘risidagi guvohnoma” [3] degan fikrdan ham anglash mumkinki, evfemizmlar ma‘lum bir so‘zlarning o‘rnida ishlatiladi.

Har qanday til boyligida evfemizmlar alohida o‘ringa ega bo‘lib, til egalarining ma‘naviy olami, dunyoqarashi, axloq-odobi, madaniyati hamda so‘zlashish etikasini namoyon etadi. Evfemizm grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, “yaxshi (muloyim, chiroyli) so‘zlayman” degan ma‘noni anglatadi. Shuningdek, “narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi; qo‘pol, beadab so‘z, ibora va tabu o‘rnida qo‘pol botmaydigan so‘z (ibora)ni qo‘llash” [4] kabi ma‘nolarni ifodalashi lug‘atlarda aks etgan. Ma‘lumotlarga qaraganda, “evfemizm” atamasi 1793-yilda ilmiy muomalaga kiritilgan (prefiks eu – yaxshi, juda yaxshi ma‘nosida) [5]. Ko‘pgina tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, evfemizmlar – qo‘llanilishi noo‘rin, aytilishi taqiqlangan so‘zlarning o‘rnida almashinib keluvchi birlik.

Jahon tilshunosligida tadqiq obyektini evfemizm bo‘lgan ilmiy ishlar anchagina bo‘lib, bu holat evfemizm hodisasining xilma-xil qirralari mavjudligi va turli sohalar bilan chambarchas bog‘liqligidan dalolat beradi. Buni evfemizmlarga berilgan turli-tuman ta‘riflar ham isbotlaydi. Jumladan, “ma‘lum bir sabab bilan qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lmagan yoki noqulay sanalgan ifodaning o‘rnida qo‘llanuvchi so‘z, ibora” [6], “qo‘pol ifodaga ega bo‘lgan, voqea-hodisaning nomini yoqimli, yumshoq ifodalagan mo‘tadil ma‘no” [7], “...man qilingan so‘zlarni almashtirish uchun boshqa so‘zlar – evfemizmlar kerak. Evfemizmlar – man qilingan so‘zlar o‘rnida ishlatiladigan, ruxsat berilgan o‘rinbosar so‘zlardir” [8] va boshqalar.

O‘zbek tilshunosligida ham evfemizmlar masalasi bir qator ishlarda tadqiq etilgan. Ayni ishlar sirasiga N.Ismatullayev, A.Omonturdiyev, M.Mirtojdiyev, A.Mamatov, X.Qodirova, Z.Xolmanova, D.Rustamova kabilarning tadqiqotlarini kiritish mumkin [9-20]. Bundan tashqari, keyingi yillarda evfemizmlarni tor doirada o‘rgangan yosh olimlar – N.G‘aybullayeva, Sh.Gulyamovalarning [21-24] ishlarini ham sanash mumkin.

O.D.Pastuxova “Tabu so‘zlar hozirgi davr uchun ahamiyatli emas, bugungi kunda u o‘z rolini yo‘qotgan deb aytish mumkin” deydi. Haqiqatdan ham, ilk tabular paydo bo‘lish sababiga ko‘ra o‘z vazifasini o‘tab bo‘ldi, ammo zamonaviy mazmundagi tabular mavjudligini inkor etib bo‘lmaydi. Bunday birliklar sirasiga aytilishi noqulay, uyatli sanalgan yoki ko‘rsatilishi milliy mentalitetga mos kelmaydigan ham lisoniy, ham ekstralingvistik vositalar orqali ifodalangan lug‘aviy birliklarni kiritish mumkin. Aynan shu ikki turdagi tabular o‘zbek kinofilmlari tilida mavjud. Masalan, o‘zbek oilalarida er-xotin bir-biriga *er*, *xotin* deb yoki ismini aytib murojaat etishi o‘zbek muloqot etikasiga unchalik mos tushmasligini yaxshi bilamiz, ammo ba‘zi film qahramonlari nutqida erning o‘z ayoliga nisbatan xotin so‘zidan ko‘p foydalanishi yoki ismini aytib chaqirishi uchraydi. Ushbu holat yaqinda turmush qurgan yoki hali farzand ko‘rmagan er-xotinlar nutqida uchrasa, me‘yoriy holat hisoblanadi, ammo bir necha farzandli yoxud yoshi katta insonlarning nutqida ishlatilishi o‘zbek xalqiga xos mentalitet me‘yoriga zid. Bundan tashqari, film nomiga “Xotinimning dugonasi” deya nom berilishi ham zamonaviy tabudan foydalanish sanaladi. Ayni shu holatlarni kino tilida tabudan foydalanish me‘yorining buzilishi deb atash mumkin. Shuningdek, “Ichkuyov” filmida Go‘zal ismli qahramonning o‘z onasiga qarata aytgan quyidagi gaplarini “hazm qilib” bo‘lmaydi:

– Oyi, nimaga indamaysiz? *Eriyizga* bir nima desayiz-chi [00:43:16].

Qiz o‘z otasiga nisbatan *eriyizga* degan qo‘pol, taqiqlangan so‘zni ishlatadi. Mazkur o‘rinda tabu so‘z juda noo‘rin tanlangan hamda kino tilini yaratishda o‘ta jiddiy xatoga yo‘l qo‘yilgan. Buni har qanday izoh bilan ham oqlab bo‘lmaydi. Ekraniga olib chiqilgan ushbu xunuk holat tomoshabin, ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlodning nutq madaniyatiga jiddiy ta‘sir o‘tkazadi.

Insonlar o‘zi qo‘rqqan, xavfli deb sanagan voqea-hodisa, tushunchalarni ishlatmaslikka harakat qilishgan. Ko‘pincha, bolalar ota-onalariga «Men qanday tug‘ilganman?» deb savol berishadi. Bunga javoban ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki o‘rinbosari bo‘lgan boshqa so‘zlar (evfemizmlar) bilan javob qaytarishadi: “Laylak sizni olib keldi”, “Sizni yo‘ldan topib oldik” yoki “Biz sizni shifokorlardan sotib oldik” va hokazo. Biz bu holatni “Qaysarginam 2” filmidagi Jasur va Jasmina dialogida ham kuzatamiz:

- Birinchidan, bu sani qorningda.
- Hmm.
- Ikkinchidan, buni manga umuman aloqasi yo‘q.
- Tushunmadim.
- Nimani tushunmaysan?
- Nima buni *laylak tashlab ketdimi* bizga? [00:01:57]

Bundan tashqari, aynan shu parchada olmosh so‘z turkumiga mansub buni so‘zi ham evfemizm vazifasini o‘tagan, chunki kinoqahramon odob me‘yoriga rioya qilgan holda “qornimdagi homila” jumlasini ochiqdan-ochiq qo‘llamaydi. Bugungi kunda tabu-evfemizmlar avvalgidek sehr-jodu, e‘tiqod bilan bog‘liq vazifani emas, butunlay boshqa, ya‘ni xalqning muloqot etikasi bilan bog‘liq vazifani bajaryapti. Endilikda har bir kishi nutqida evfemizmdan foydalanmoqchi bo‘lsa, avvalo, xalqning so‘z qo‘llash madaniyati, odob-axloq qoidalarini puxta egallashi, qo‘pol so‘zlar o‘rnida uning yumshoq variantini tanlay olishi talab etiladi. Bu esa kishining qanchalik madaniyatli, saviyasi baland inson ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbek muloqot madaniyatida evfemizmlardan unumli foydalaniladi, sababi, xalqimiz tabiatan xushmuomalalikni sevuvchi, yumshoq fe‘lli, suhbatdoshining dilini og‘ritmaslikka harakat qiluvchi mehribon xalqdir. Buni betakror badiiy asarlar, sahna asarlari, kinofilmlar, yuksak madaniy nutq egalari misolida yaqqol kuzatish mumkin. Evfemizmlar davr, vaqt bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi bois hamisha yangilanib turadi. Mustaqillik davri o‘zbek kinofilmlari tilini kuzatganimizda bunga amin bo‘ldik. Ma‘lumki, kinofilmlar tili og‘zaki nutqning bir ko‘rinishi sanalib, ommaga taqdim etiladigan “andaza” tildir. Kinolarda evfemizmlardan qay darajada foydalanilayotgani aniqlash maqsadida bir necha filmlardan olingan misollarga e‘tiborimizni qaratamiz. “Janob qorovul” filmidagi Solijon aka bilan homilador kotiba o‘rtasidagi dialog quyidagicha kechadi:

- Nima kutyapsizlar? Xo‘jayinmi, kotibami?
- Xo‘jayin [00:22:20].

Parchada Solijon aka kotibadan tug‘ilajak farzandining jinsini ochiq oydin so‘rashdan qochib, *xo‘jayin, kotiba* degan evfemizmlardan foydalanadi. Bu evfemizmlar film tilida ayni o‘sha vaziyatni ochib berishda juda o‘rinli ishlatilgan hamda ushbu muloqotning xo‘jayin va kotiba o‘rtasida bo‘lib o‘tganligi qaysidir ma‘noda so‘z o‘yiniga sababchi bo‘lgan.

“Onam bilmasin” filmidagi Aziza (kelin) va qaynota o‘rtasidagi suhbat ham e‘tiborimizni tortdi:

- Dadajon.
- Hi.
- Kelin sizga salom qilyapti. Boring.
- Yo‘g‘, ovqat yemayman, qornim to‘q.
- Hay, qani, taqing ana uni, haligini.
- Nima deysiz?
- Kelinimiz sizga salom qilyapti [00:01:00].

Parchada ham leksik, ham ekstralingvistik evfemizmdan foydalanilgan. Kelin qaynotaga gapiradi, ammo u eshitmaydi, faqatgina lablar harakatidan kelib chiqib kelinning savoliga o‘zicha javob beradi. Ushbu javobdan kelin qaynotasining eshitish moslamasini taqmaganligini bilgach, qo‘lini qulog‘iga eltib (ekstralingvistik evfemizm) *taqing, ana uni, haligini* (leksik evfemizm) deydi. Ushbu nutqiy vaziyatda evfemizmning ikki turidan bir vaqtda foydalanishning quyidagi zarurlari mavjud:

1) kinoqahramonning qulog‘i og‘ir bo‘lganligi bois ham ekstralingvistik evfemizm zarur edi, chunki u so‘zni eshitmaydi, ammo imo-ishorani yaxshi tushunadi;

2) leksik evfemizm esa tomoshabiniga yanada tushunarli bo‘lishi uchun ishlatilgan.

Filmlarda leksik, leksik-ekstralingvistik evfemizmlardan tashqari faqat ekstralingvistik evfemizmdan foydalanganligiga ham guvoh bo‘ldik. Misol uchun “Kutilmaganda” filmida yosh kelin oila a‘zolari bilan bir dasturxon atrofida o‘tirgan bo‘ladi. Shunda birdan kelinning ko‘ngli behuzur bo‘lib, dasturxon boshidan

turib ketadi. Oila a'zolari nima bo'lganligini bilolmay, bir-biriga qarashadi. So'ng qaynona va qaynota "haaa" degancha sababi homilador ekanligida deb bir-birlariga gap ma'qullashadi, lekin ochiqchasiga biror so'z aytishmaydi. Filmdagi ushbu kadrda kelinning *ko'ngil aynishi, behuzur bo'lishi* homiladorlik belgisi sifatida namoyish etiladi.

Bundan tashqari, mustaqillik davrida suratga olingan boshqa filmlarda ham juda ko'plab evfemizmlar uchraydi. Chunonchi, *mandan qaytgan qiz, huvillab qolmoq, dadasi, oyisi, onasi, xo'jayin, otivoradigan qo'g'irchoq, bolalarni qovushtirmoq, ota bo'lmoq, birga bo'lish, ikkiqat, bokira, jufti halol, qiz bola, boshqasi (o'ynash), u kishi (er), yashashga (er-xotin bo'lish)* kabilar.

Borliq, olam rang-barang bo'lganidek, evfemizmlarning ham mavzuiy guruhi turlicha bo'ladi. Dunyo tilshunosligida ayni shu mavzu tahliliga bag'ishlangan V.Y. Aleyeva maqolasi mavjud bo'lib, muallif film va teleseriallarda uchraydigan ayrim evfemizmlarni tahlilga tortadi hamda ularni shartli ravishda 3 ma'noviy guruhga ajratadi:

- 1) aqliy va jismoniy qobiliyat bilan bog'liq evfemizmlar;
- 2) o'lim bilan bog'liq evfemizmlar;
- 3) fiziologik jarayon nomlari bilan bog'liq evfemizmlar [25].

Mustaqillik davri o'zbek kinofilmlari tilida esa evfemizmlarning quyidagi ma'noviy turlari uchraydi:

- 1) er-xotin nutqida qo'llanuvchi evfemizmlar;
- 2) oila qurish va homiladorlik bilan bog'liq evfemizmlar;
- 3) o'lim bilan bog'liq evfemizmlar;
- 4) aqliy va jismoniy nuqsonni ifodalovchi evfemizmlar;
- 5) sotsial guruhlarda qo'llanuvchi evfemizmlar.

O'zbek tilining naqadar madaniy til ekanligi yoshi ulug' insonlar nutqida yaqqol ko'rinadi. O'g'il bolalarga nisbatan *ota*, qizlarga esa *ona* deb murojaat etishlari lisoniy madaniyatdan darak beradi. Bundan tashqari, oila a'zolari bir-birining ismini aytmay, turli nom bilan atash holatlari ham uchraydi: *oyijoningiz, dadangiz, opangiz, akangiz, ukangiz, qaynakangiz, qaynukangiz, qaynsingilingiz, kelingiz, kuyovingiz, nevarangiz* va hokazo. Kinofilmlarda ham ushbu evfemizmlar tez-tez uchraydi, faqat ayrim filmlarda ushbu so'zlarning o'rindoshi bilan birgalikda ishlatilganligiga guvoh bo'lish mumkin. "Jangovar qaynona" filmidagi qaynona obrazi o'z keliniga *kelin* deb murojaat qiladi, birozdan so'ng, o'z-o'ziga gapirganda esa *Zilola*, ya'ni kelinning ismini aytadi. Kelinini ismi bilan atashi salbiy munosabatni ifodalashga xizmat qilgan hamda kino tili me'yoriga mos tushgan. O'sha holatda *kelin* so'zi ishlatilsa, qahramonning salbiy munosabati hozirgiday namoyon bo'lmasdi.

N. Shevchenko zamonaviy badiiy filmlarda uchraydigan nome'yoriy leksikaning turli vazifalarini sanab o'tadi hamda bevosita evfemizm va tabuning kinofilmlardagi o'rni xususida ham to'xtaladi [26].

Xulosa. Kuzatishlarimiz asosida film tilida uchraydigan evfemizmlarning quyidagi vazifalarini sanab o'tamiz:

- 1) aytilishi noqulay bo'lgan so'zlarning ma'nosini yumshatish;
- 2) qo'pol so'zning asl mazmunini ochib berish;
- 3) aytilishi noqulay bo'lgan so'zlarning odob doirasida qo'llanishini ta'minlash;
- 4) tomoshabinga chiroyli so'zlashishni o'rgatish;
- 5) xalqning nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qilish;
- 6) adabiy til me'yorlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatish.

Demak, o'zbek kinofilmlari tilida efemizmlarning o'rni beqiyos, ular o'zbek xalqiga xos urf-odat, mentalitet, dunyoqarash, so'zlashish madaniyati, odob-axloq etikasi kabilarni namoyish etishda hamda o'sib kelayotgan kelajak alodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Ларин Б.А. Об эвфемизмах // Ларин Б.А. История русского языка и общее языкознание. М.: Просвещение, 1977. – С. 101-114.
2. Пастухова О.Д. Об эвфемизмах и табу // Филологические науки. Вопросы и практики. 2017. – № 11 (77): в 3-х ч. Ч.1. – С.143.
3. Sadovnikova M.N., Nevolnikova S.V., Bogatskaia E.Yu. Euphemisms in language of the french mass media: pragmatical aspect // Russian linguistic bulletin №3 (7) 2016. – P.69-74.
4. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: O'zME, 2002. – B.124.
5. Дружинин А.С., Фомина Т.А., Поляков О.Г. Эвфемизмы, дисфемизмы, ортофемизмы и экспериенциальный контекст: холистический взгляд на лингвистическую проблему // cyberleninka.ru

6. Евгеньева А.П. *Словарь русского языка в четырех томах [Текст] / А.П.Евгеньева.* – Т. 4. – М.: Русский язык, 1988. – 800 с. – С.746.
7. Розенталь Д.Э. *Эвфемизм // Словарь-справочник лингвистических терминов.* –М., 1976.– С.120.
8. Реформатский А.А. *Введение в языкознание.* – М.: Наука, 1967. – С.99.
9. Исматуллаев Н. *Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф. дисс. канд. филол. наук.* – Т., 1963. – 19 с.
10. Омонтурдиев А. *Эвфемик воситаларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди дис. автореф.* – Т.,1997. – 23 б.
11. Омонтурдиев А. *Ўзбек нутқининг эвфемик асослари.* –Т., Халқ мероси, 2000. – 128 б.
12. Омонтурдиев А. *Профессионал нутқ эвфемикаси.* – Т.: Фан, 2006. – 232 б.
13. Омонтурдиев А. *Бир сўз лугати.* – Термиз: Жайхун, 1996. – 46 б.
14. Омонтурдиев А., Омонтурдиев Ж. *Сўз қўллаш санъати.* – Термиз: Жайхун, 1994. – 60 б.
15. Омонтурдиев А. *Ўзбек тилининг қисқача эвфемик лугати.* – Т.: Фан, 2006. – 134 б.
16. Миртожиев М. *Ўзбек тили семасиологияси.* – Т.: Мумтоз сўз, 2010. – 288 б.
17. Маматов А. *Ўзбек тили фразеологияси шаклланиши масалалари: Фил.фан.док. автореферати.*–Т., 1999.– 56 б.
18. Қодирова Х. *Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмлардан фойдаланиши маҳорати: филол. фанлари номзоди дисс.* – Т., 2009. – 23 б.
19. Холманова З. *“Бобурнома” лексикаси тадқиқи: филол. фанлари докт дисс.* – Т., 2009. – 23 б.
20. Рустамова Д. *Метафорик эвфемизациянинг лингвокультурологик ва социопрагматик аспектлари: филол. фан. номз. дис. автореф., Фаргона, 2018.* – 50 б.
21. Гайбуллаева Н. *Ўзбек тилида тиббий эвфемизмлар (тиббий даврий нашр материаллари асосида): филол. фан. фалсафа док. (PhD) дис. автореф., Бухоро, 2019.* – 50 б.
22. Гайбуллаева Н.И. *Ўзбек тили тиббий эвфемизмларининг қисқача изоҳли лугати.* – Т.: Akademnashr, 2019. – 77 б.
23. Гулямова Ш. *Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер хусусиятлари: филол. фан. фалсафа док. (PhD) дис. автореф., Бухоро, 2020.* – 55 б.
24. Гулямова Ш. *Ўзбек тили гендер хосланган эвфемизмларининг қисқача изоҳли лугати.* – Т.: Akademnashr, 2019. – 80 б.
25. Алеева В.Ю. *Эвфемизация в кинофильмах // Актуальные проблемы современной лингвистики глазами молодых ученых: материалы XIV Всероссийского научного семинара (г. Уфа, 15 мая 2020 г.) / отв.ред. Р.А. Газизов.* – Уфа: РИЦ БашГУ, 2020. – 416 с. – С 3-6.
26. Шевченко Н. *Зачем нужен мат в кино? О различных функциях ненормативной лексики в современном художественном кино. 21ST CENTURY RUSSIAN CINEMA: On Boundaries, Margins and Space, Jun 2018, Graz, Austria. {hal-02471375} Submitted on 21 Feb 2020. <https://hal.univ-lyon2.fr/hal-02471375>*
27. Shirinova M.Sh. *The issue of literary norms in the language of cinema // International Journal on Integrated Education, 2020.March.e-ISSN: 2620 3502. p-ISSN:2615 3785. Impact factor 6.196. Vol.3. Issue 3.–P.35-40.*
28. Shirinova M.Sh. *The attitude of the language of uzbek films at the period of independence to the lexical norms // Journal NX A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 2021.July.ISSN 2581-4230 (E). Impact factor 7.183. Volume 7. Issue 7. – P. 190-196.*